Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · “Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnologik tarmoqlardagi o‘rni” mavzus...

materiallar to‘plami

O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARNI UZVIYLIK VA UZLUKSIZLIK TAMOILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mamanova Sayyora Faxriddinovna
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali stajyor-tadqiqotchisi

Anotatsiya: Kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni uzviylik va uzluksizlik hamda izchillik, shu bilan birga, aloqadorlik asosida rivojlantirish va bunda ta’lim beruvchining mahorati, fani yuzasidan egallagan bilimlari, orttirgan tajribasi alohida ahamiyatga egaligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Kompetensiya, nutqiy kompetensiya, aloqadorlik, ketma-ketlik, uzviylik, uzluksizlik, izchillik,

Yangi O‘zbekiston kelajagi bo‘lmish yoshlarga innovatsion, ilg‘or usullar va metodlarni qo‘llab, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta’lim berish hamda o‘quvchilarning ta’limdagi sifat samaradorligini oshirish, yoshlarni raqobatbardosh qilib tarbiyalash ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Zero, Prezidentimizning “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”,-deb e’tirof qilinishi fikrimizning yaqqol misolidir. Yoshlarning keng doirada fikrlashini, tafakkurini o‘stirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish ayniqsa jamiyatda tub burilishlar, o‘zgarishlar hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni uzviylik va uzluksizlik hamda izchillik tamoili asosida rivojlantirish, eng avvalo, ta’lim beruvchining mahorati, fani yuzasidan egallagan bilimlari, orttirgan tajribasiga ham bog‘liq. Ta’lim izchilligi uchun tizimlilik o‘lchov hisoblanadi. Ona tili o‘quv fani sifatida ma’lum tizimdan iborat, ya’ni fonetikani o‘rganmasdan turib, leksikani puxta o‘zlashtirib bo‘lmaydi. Leksikani yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchilarga morfologiyani o‘rganish oson kechadi. Kasb-hunar muassasalarida o‘quvchilarning avvalgi olgan bilimlarini hisobga olish, o‘rganilgan va o‘rganilayotgan bilimlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni ta’minlash izchillik tamoyili orqali amalga oshiriladi. Tilni tizimli o‘rganishga asoslangan ona tili o‘qitish metodikasi o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularning lug‘at boyligini oshirish, o‘zgalar nutqini tinglay va anglay olish, fikrni aniq, ixcham ifodalash, so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish, fikrni ifodalashda shakl va mazmun uyg‘unligiga, mantiqiy mukammallikka erishish, kasb-hunar ta’limi muassasalarida “o‘quvchi –ta’lim –o‘qituvchi” munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish –ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab berishga xizmat qiladi. Kasb-hunar muassasalarida ona tili darsligida ketma-ketlikda berilgan mavzular o‘quvchilarni oldingi bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Yangi o‘quv materialini oldin o‘rganilganlar bilan bog‘lash, bilimlarni yangi sharoitda qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchini ijodiy faoliyati uchun imkoniyat yaratadi. Kasb-hunar ta’limi muassasalari ta’limida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirishda: o‘quvchi faoliyati mazmunini tahlil qilish; natijalarni oldindan ko‘ra bilish; rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish kabi vazifalar bajariladi. Bu bosqichda kasb-

Published: 10.11.2023

Cite this article: Mamanova Sayyora Faxriddinovna (2023). O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni uzviylik va uzluksizlik tamoillari asosida rivojlantirish. Emro Science and Education, 1(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/379

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

hunar ta’limi muassasalarida o‘qituvchining mustaqil va shu bilan birga, o‘quvchi bilan hamkorlikda o‘quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash faoliyati etakchi o‘rin tutadi. Kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni tizimli shakllantirish va rivojlantirishda o‘quv rejasi, dasturlari, darslik, metodik tavsiyalar va boshqa o‘quv qo‘llanmalar muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarida o‘quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish tizimi quyidagilarga imkon beradi:

–o‘quvchilarda bilish ehtiyojini shakllantiradi;

–o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi;

–o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

–axborot bilan ishlashni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi;

–ta’limda o‘quvchining individuallik darajasini oshiradi;

–o‘quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;

–materiallar mazmunining ketma-ketligi o‘quv materiallari doirasini kengaytiradi va o‘quvchilarning oldingi bilimlarini mustahkamlanishiga yordam beradi;

–o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi nazorat qilishi, ya’ni baholash jarayonining omillarini kengaytiradi va h.k.

Kasb-hunar ta’limi muassasalarida darslarni o‘qitish samaradorligini oshirishning yana bir samarali usullari mavzulararo, bo‘limlararo, fanlararo bog‘lanishdir. Mavzulararo aloqadorlikda bir predmet ichidagi bilimlarni tizimlashtirish olamni bir butunlikda, yaxlit tasavvur qilish jarayonida ma’lumotlarni jamlab, bir tizimga qo‘yishdan iborat. Bu turdagi aloqadorlik alohida o‘quv predmetini qamrab oladi. Fanlararo aloqadorlikning mohiyati va ahamiyati ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Jumladan A.A.Xasanov “O‘quvchilar bilimi va ilmiy darajasi, ular fikrlashi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishida o‘qitishning ahamiyatini oshirishning, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning, bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirishning, bilishga oid mahorat shakllanishining va yakuniy hisobda o‘quv jarayonini takomillashtirishning didaktik sharti” sifatida qaraydi. Metodist olimlarimiz fikricha fanlararo bog‘lanish turli ta’lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o‘quv topshiriqlari tizimida) ko‘proq o‘z echimini topishidan darkor. Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlarda matnlar tanlash, boshqa o‘quv fanlariga oid atamalardan foydalanib, kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid atamalarni ajratish va sharhlash, so‘z ma’nolarini matn ichida farqlash ko‘nikmalarini singdirish –o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi hamda nutqiy savodxonligini oshiradi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarida filologik materiallarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, til hodisalarini kuzatish, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, til hodisalari mohiyatini chuqurroq o‘rganishga, nutqda so‘zni me’yorida va o‘rnida ishlatish ko‘nikmalarini mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi.

Maqolamiz so‘ngida xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda tizimli yondashishlarimiz o‘zining samarasini beradi. Avvalo, bunda kasb-hunar muassasalari o‘qituvchilaridan yuksak malaka va mahorat talab etadi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi rivojlantirilar ekan, bu o‘quvchilar uchun ham, ta’lim sohamiz uchun ham yangi bir marralarni ochish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Mamanova., Kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodikasi., Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik konferensiyasi2023-yil 13 oktabr
2. S.Ashurova. S.Mamanova., “International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research” xalqaro jurnalida (2023-yil 71-bet)
3. A.Xasanov., O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limida fanlararo aloqadorlikdan foydalanish imkoniyatlari // Pedagogik ta’lim, 2011. –No 5. –B. 16 –19.
4. S.Mamanov., Development of professional competences in vocational schools through career directed training Issue 2023
5. O.Turakulov. S.Mamanov., Main functions of professional teaching of mathematics in vocational schools Issue 2023
6. O.Turakulov. S.Mamanov., Fanlarni kasbga yo‘naltirib o‘qitishda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish yo‘llari 2022 13-M